



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining axborot tizimlarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimi tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 10-bandi ijrosini ta’minlash, shuningdek, faoliyati tugatilgan Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining mol-mulkklari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov)ga:

10-sentabrga qadar faoliyati tugatilgan Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan “test.tdi.uz”, “pedkadr.tdi.uz” va “onaks.tdi.uz” axborot tizimlari (keyingi o‘rinlarda – axborot tizimlari)ni o‘rnatilgan tartibda qabul qilish;

Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi bilan kelishgan holda axborot tizimlarini “Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestri”da Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga o‘tkazish;

axborot tizimlarining konsepsiya loyihasi va texnik topshiriqlarini 2024-yil 30-martga qadar Raqamli texnologiyalar vazirligidan ekspertizadan o‘tkazish;

2024-yil 1-iyulga qadar axborot tizimlarining axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan “Kiberxavfsizlik markazi” DUKda ekspertizadan o‘tkazish choralari ko‘rish;

Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi (F.Mirbabayev) bilan birgalikda joriy yil yakuniga qadar axborot tizimlarining konsepsiya loyihasi va texnik topshiriqlarini ishlab chiqish hamda axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash uchun mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha taklif kiritish vazifalari yuklatilsin.

2. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) departamentga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yuqorida ko'rsatilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha mas'ul etib belgilansin.

3. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni markaziy apparatning tegishli tarkibiy bo'linmalariga yetkazsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 29-avgust,
275-son